

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Tong Yulduzi



2014-yil 6-yanvar
N:1 (66958)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

SAHNADA «KAMALAK yulduzlari»



EH, BIZDA QISHKI TA'TIL,
QUVONCHLARGA TO'LA DIL!

Yangi yil respublikamizdagi iqtidorli o'g'il-qizlar uchun qo'shaloq bayramga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bayram arafasida «Turkiston» saroyida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi, Madaniyat va sport ishlari vazirliklari bilan hamkorlikda tashkil etilgan «Kamalak yulduzlari» respublika bolalar ijodiyoti festivali hamda «Yurt kelajagi» respublika ko'rik-tanlovi g'oliblarini tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Davomi 2-betda



(Boshi 1-betda)

SAHNADA «KAMALAK yulduzlari»



Yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish, bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini takomillashtirish maqsadida o'tkazilgan «Kamalak yulduzlari» Respublika bolalar ijodiyoti festivalida 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan yosh iqtidorlar mumtoz va milliy musiqa cholg'ulari ijrochiligi, an'anaviy va akademik xonandalik, xoreografiya, tasviriy va amaliy san'at, nasr va nazm yo'nalishlarida o'z iste'dodlarini namoyon etdilar.

Festivalning jajji g'oliblarini «Yulduz-

cha» xor jamoasi, «Zarb» doirachilar jamoasi, «Tumorch» va «Quvonch» guruhlari kuy va qo'shiqlar bilan qutlashdi.

Festivalda qatnashgan barcha ish-tirokchilar hamda tomoshabinlarning yuz-ko'zlarida quvonch va shodlik aks etardi. Sababi, dildan yangragan kuy-qo'shiqlar dillarga yetib bordi, doirani barmoq emas, balki yurak chalgandek bo'ldi, yosh raqqosalar o'ynaganda esa butun olam zavqqa to'ldi, go'yo.

O'z muxbirimiz

Ta'til taassurotlari

QISHNI YAXSHI KO'RAMAN



Har fasning o'z o'rimi, o'z ziynati bor. Men qishni juda yaxshi ko'raman. Negaki, bu faslda Yangi yilni nishonlaymiz, bayramga qishki ta'til kunlarimiz ulanib ketadi.

Ya qinda oilamiz bilan poytaxtimizdagi Mustaqillik maydoniga bordik. «Ertaklar shaharchasi»dagi teatrlashtirilgan tomoshalar, Qorbobo va Qorqizning sovg'alari yurtimizning olis shahar va qishloqlaridan kelgan yurtdoshlarimiz, xorijlik mehmonlar, jajji bola-



kaylarga olam-olam zavq ulashmoqda. Menga, ayniqsa, O'zbek milliy akademik drama teatri aktyorlarining «Qorboboga maktub» va «Kutilmagan mehmonlar» deb nomlangan sahna ko'rinishlari juda yoqdi. Bunday tomoshalar ta'til kunlarimizning mazmunli o'tishiga xizmat qilmoqda.

Odina SAHOBIDDIN qizi, poytaxtimizdagi 96-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi. Zuhra NISHONOVA olgan suratlar



«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA» tanloviga marhamat!

Mustaqillik ota-bobolarimizning asriy, azaliy orzusi, xalqimizning ulkan yutug'i.

Uni bebaho ne'mat, deya ardoqlaymiz, qadrlaymiz. Istiqlol sharofati bilan tarixan qisqa davr ichida yurtimizda barcha sohada ulkan o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, kelajagimiz vorislari bo'lmish yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, keng imkoniyatlarni sanab, adog'iga yetish mushkul.

Yurtimiz Mustaqilligining 23 yilligi munosabati bilan, shuningdek, yosh avlod qalbida ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, ularni yurtga, mustaqillik g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash, o'quvchilarimiz ongiga milliy urf-odatlarimiz, an'ana va qadriyatlarimizni singdirish, bilimli, barkamol yoshlarni shakllantirish, o'z yurti, millati va urf-odatlaridan faxrlanish hissini uyg'otish, respublikamizning chekka hududlaridan iqtidorli va iste'dodli yoshlarni izlash, ijodkor o'quvchilarni ma'naviy rag'batlantirish, kelgusida o'z qobiliyatlarini takomillashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida Respublika bolalar kutubxonasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, «Tong yulduzi» bolalar va o'smirlar gazetasi hamkorligida joriy yilning yanvar oyidan sentabr oyiga qadar umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovi o'tkaziladi.

Mazkur ko'rik-tanlov Mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ezgu ishlar, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va turli sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuq va natijalarini targ'ib etishga qaratilgan.

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovi:

1. Tasviriy san'at.

2. Badiiy adabiyot (she'rlar, hikoyalar, insholar) yo'nalishida o'tkaziladi.

Tanlovga qo'yiladigan talablar:

– tasviriy san'at orqali o'z ona yurtini ulug'lashi, uning betakror go'zalligini ko'ra bilishi;

– badiiy didga ega bo'lishi lozim.

Badiiy adabiyot (hikoya) yo'nalishi bo'yicha ishtirok etadigan o'quvchilarning ijodiy ishlarida:

– mavzu ixcham ifodalanishi, bilim va mahorat bilan mustaqil yozilishi talab etiladi.

She'riyat yo'nalishi bo'yicha ishtirok etadigan o'quvchilar o'zbek xalqining o'ziga xos milliy xususiyatlari, Vatan, Istiqlol, ma'naviyat va ma'rifat tarannumiga bag'ishlangan vazn, qofiya, band, badiiy mazmun, ohang kabi she'riyat talablariga javob beradigan she'rlar yuborishlari shart.

Buning uchun esa yosh qalamkashlardan iste'dod va mahorat talab qilinadi.

O'quvchilar o'z ijod namunalari O'zbekistonimizning mustaqil taraqqiyot yillarida turli sohalarida erishgan yutuq va natijalari, yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, aholi turmush farovonligini oshirish yo'lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar haqida yozishlari mumkin.

Mavzuga oid bo'lmagan ijodiy ishlar tanlovda ishtirok etmaydi.

Tanlov talablariga to'la javob beradigan eng mazmundor ishlar «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» ko'rik-tanloviga» rukni ostida muntazam chop etib boriladi.

Mazkur yilning avgust oyi oxirida Respublika bolalar kutubxonasida tanlovning Nizomi asosida o'quvchilarning ijodiy ishlari tasviriy san'at, hikoya va she'riyat yo'nalishlari bo'yicha hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi va 1-, 2-, 3-o'rinlar g'oliblari aniqlanadi.

Ko'rik-tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi 2014-yilning sentabr oyida Respublika bolalar kutubxonasining anjumanlar zalida o'tkaziladi. G'oliblar tashkilotchilar tomonidan diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadilar.

Tanlovga kelgan ijodiy ishlarda o'quvchining o'z manzili, ta'lim olayotgan maktabi va sinfi, telefon raqami ko'rsatilishi hamda 4x5 hajmdagi fotosurati bo'lishi shart. Ijodiy ishlar 2-3 bet hajmda, Times New Roman formatida, 14 shrift va 1,5 intervalda yozilishi va joriy yilning 20-avgustiga qadar xat orqali Respublika bolalar kutubxonasi manziliga yoki elektron shaklda kutubxonaning elektron manziliga yuborilishi lozim.

Manzilimiz: Toshkent shahri, 100000

Yahyo G'ulomov ko'chasi, 47-uy

Respublika bolalar kutubxonasi

Tel: 8-371-233-17-91, 233-25-19

Elektron manzil: Bolalar_RK@inbox.uz

www.kitob.uz

FARZANDLAR SOG'LOM BO'LSIN!

Orta qolgan 2013-yil mamlakatimiz hayotida muhim iz qoldirdi. Prezidentimiz tomonidan o'tgan yilga «Obod turmush yili» deya nom berilishi xalqimizning turmush darajasini yaxshilash, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni shu yurt taqdiriga daxldorlik ruhida tarbiyalash, ularning iqtidor va iste'dodini to'la ro'yobga chiqarishdek ezgu maqsadlarimizga qanot bag'ishladi. Bu kabi ezgu ishlarni amalga oshirishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda, nodavlat-notijorat tashkilotlari ham samarali mehnat qildi.

Jumladan, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jam'armasi «Obod turmush yili» Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida ko'plab ibratli loyihalarni amalga oshirdi. Quvonarlisi, qilingan barcha sa'y-harakatlar yosh avlod o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, ular

salomatligini tiklash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash, farzandlarimizning iqtidorini ro'yobga chiqarishga xizmat qildi.

Katta ishonch bilan aytishim mumkinki, bu yo'lda amalga oshirilayotgan xayrli ishlar yangi – 2014-yil «Sog'lom bola yili»da ham davom etadi.

Tilagim, kirib kelgan yangi yil yurtimizdagi barcha oilalarga quvonch, shodlik va baxt olib kelsin. Diyorimizdagi

Svetlana INOMOVA,
Hukumatga qarashli bo'lmagan
«Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya
jam'armasi Boshqaruvi raisi

barcha xonadonlarda sog'lom bolalar dunyoga kelsin. Farzandlarimizning shodon kulgusi hayotimizga mazmun, ko'ngillarimizga quvonch ulashsin.

Yangi yilingiz
mubarak bo'lsin!

NIGORA olgan surat



Aziz bolajonlar, Yangi yil bayramida yaqinlar, tanish-bilishlar, qadrdonlardan sovg'a olish qanday yoqimli-a? Ayniqsa, sovg'alar tengdoshlaringizdan bo'lsa, yanada qadriroq bo'lishi tayin. Poytaxtimizning Hamza tumanidagi 52-ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari bayram arafasida an'anaviy «Bolalardan – bolalarga» xayriya aksiyasi doirasida 61-, 145-, 215- umumta'lim maktablari o'quvchilaridan biri-biridan bejirim, chiroyli,

e'tiborlisi, o'quvchilar o'z qo'llari bilan yasagan bayram sovg'alarini qabul qilib olishdi. Mirzo Ulug'bek tumanidagi 2-bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilari tayyorlagan raqs, kuy va qo'shiqlar bayramga o'zgacha fayz kiritirdi.

Bolajonlarimizga quvonch ulashgan aksiya tashkilotchilariga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.
Go'zal PO'LATOVA,
shu maktab o'quvchisi

OLAM ICHRA O'XSHASHI YO'Q!



Vatanim onam! U beshigim uzra aytilgan alla! Uning mehrini his qilib o'sdik, ulg'aydik. Bu betakror gulshan barchamiz uchun qadri, aziz. Vatanimiz bejizga jannatmakon yurt deb ta'riflanmaydi. Uning tabiati go'zal, tuprog'i unumdor. Ufqqa tutash dalalari-yu osmono'par tog'larning beqiyos manzarasidan shoir-u musavvirilar ilhom oladi.

Yurtdoshlarimiz yuzlarida tinchlik-xotirjamlikni, kelajakka bo'lgan ishonchni, tengdoshlarimiz ko'zlarida esa bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni ko'ramiz.

Ona Vatanim! Olam ichra senga o'xshashi yo'q. Muqaddas noming mehning-la urayotgan yuragimizdadir.

Ma'sumaxon SALOHIDDINOVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
4-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Bizga maktub yo'llabsiz...



Sinfdoshim Feruzani hamma hurmat qiladi. Chunki u bilimdon, aqlli, zukko, odobda ham barchaga o'mak. She'rlarni ifodali, matnlarni ravon o'qishda unga teng keladigani yo'q. Insholar tanlovda ham doim birinchi o'rinni Feruza qo'liga kiritadi. Unga juda havasim kelardi. U kabi inshoni bexato yozishga harchand harakat qilmay, daftarim xatolarga to'lib ketardi.

«So'rab o'rganagan olim,
So'ramagan o'ziga zolim» maqoliga amal qilib, Feruzadan a'lo o'qishining sirini so'raganimda, u kitob, gazeta, jurnallarni ko'p o'qishini aytdi. Ayniqsa, «Tong yulduzi» gazetasiidagi she'r, ertak, maqola va hikoyalarni maroq bilan o'qib borishini alohida ta'kidladi.

Shu suhbatdan so'ng mening ham «Tong yulduzi»ga qiziqishim ortdi. Uning har sonini diqqat bilan o'qib, o'rganib boryapman. Shundan buyon insholarni bexato yozadigan bo'ldim. So'z boyligim oshib, hikoya, ertaklarni ifodali o'qiyapman.

Obidaxon YO'LDOSHEVA,
Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanidagi
34-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi

TENGDOSHLARIMGA TILAKLARIM

Assalomu alaykum, qadri va aziz tengdoshlarim! Men barchangizni sevimli gazetamiz «Tong yulduzi» orqali yangi – 2014-yil bilan chin qalbimdan tabriklayman. «Sog'lom bola yili»da sira betob bo'lmang. A'lo baholarga o'qib, ustozlaringizdan yanada ko'proq ilm o'rganishga intiling. Orzularingizning bari ushalsin!

E'zoza USMONXO'JAYEVA,

poytaxtimizdagi 34-maktab o'quvchilari

KITOB NURGA O'XSHAYDI

Sevimli yozuvchimiz Tohir Malikning «Kitob o'qishga erinmang, u sizni yuksaltiradi. Kitob har qanday muallimdan ustun turuvchi ustozdir» degan fikrlari bizni doimo kitobxonlikka chorlaydi. Demak, u bizning eng yaqin do'stimiz, shuningdek, ustozimiz ham ekan. Chindan ham u bizga ilm beribgina qolmay, hayotni ham o'rgatadi. Misol uchun, yaqindagina o'qib tugatganim «Kelinlar daftariga» nomli kitobda bildirilgan fikrlar, maslahatlar kelajak hayotimda asqotadi. Shuni ishonch bilan aytay olamanki, bugun qanchalik ko'p kitob o'qisak, kelajagimiz shunchalik nurli bo'ladi. Zero, ilm-u ma'rifat, kitob hayot yo'llarimizni nur-u ziyoga to'ldiradi.

Robiya QOBILOVA,

Yangi yil tilaklari



QUVONCHLI SARHISOB

Bolajonlarga bayram tabrigini yozar ekanmiz, beixtiyor o'z bolaligimiz yodimizga tushadi. O'sha davr xotiralari orasida, albatta, Yangi yil bayrami, Qorbobodan olgan sovg'alarimiz ko'z oldimizga keladi. Lekin, bugungi kun bolasingiz Yangi yil bayramiga havas qilsak arziydi. Chunki ular muhtasham saroylarda, ko'rkam maydonlarda, ta'lim dargohlarida o'tkazilayotgan bayram tantanalari qatnashib, Qorbobodan, ba'zilar esa Yurtboshimizdan sovg'a oldilar. Diyorimizda ularga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yana bir namunasini dildan his qildilar.

Yurtimiz bolalariga berilayotgan e'tibor haqida gap ketganda, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va uning homiyligidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti ham tilga olinishi bizni quvontiradi. Darhaqiqat, bugungi kunda tashkilotimiz tomonidan o'tkazilayotgan turli tadbirlar, tanlovlar misolida aytish mumkinki, farzandlarimizga

Bahodir G'ANIYEV,
«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi raisi

ko'rsatilayotgan e'tibor yildan yilga ortib bormoqda. Bunga javoban yoshlarimizning o'tgan yilda qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishgani bizni behad quvontiradi. Xalqaro fan va sport olimpiadalari g'oliblari, «O'zbekiston iftixori» faxriy unvoni, «Shuhrat» medali sohiblari,



tashkilotimiz tomonidan topshirilgan «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni sovrindorlari va Harakatning yirik loyihalari g'oliblariga aylanayotgan yoshlarimiz safi kengaymoqda.

Shuningdek, «Kamolot» shaxmat taxtasi respublika turniri g'oliblarining xalqaro musobaqalarda yuqori shohsupalarni egallayotganlari fikrimiz isbotidir. Jahon chempioni 8 yoshli Nodirbek Abdusattorov, Osiyo chempioni 5 yoshli Islombek Sindorov kabi yosh shaxmatchilarimiz Vatanimiz sha'nini bolalikdanoq yuksaklarga ko'tarishmoqda. «Kamolot»dan Yangi yil!, «Kamalak»dan Yangi yil! kabi loyihalarimiz aziz bolajonlarga atalgan bayramlarimizdir.

2013-yilni ana shunday quvonchli sarhisob bilan yakunlaganimiz naqadar maroqli. Yangi yilimiz ham muvaffaqiyatlarga boy bo'lsin!

IZLANISHDAN CHARCHAMAYDI

Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi 24-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Mahliyo Mamatovaga ko'pchilik sinfdoshlari havas qilishadi.



Intiluvchan, serg'ayrat, kitobsevar bu tengdoshingiz ortda qolgan 2013-yilda talaygina yutuqlarni qo'lga kiritdi. U barcha fanlar bo'yicha chorakni a'lo baholar bilan tugatib, ustozlari ishonchini oqladi. To'g'ri-da, axir sinf sardorlari namunali xulqi, a'lo bahoga o'qishi bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

Mahliyo ona tili va adabiyot fanlaridan o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida ham faxrli 2-o'rinni egallab, diplom bilan taqdirlandi. U bo'sh vaqtlarida sevimli shoirlarimiz Hamid Olimjon, Zulfiya, Abdulla Oripov, Muhammad Yusufning she'riy kitoblarini mutolaa qilishni xush ko'radi, o'zi ham she'rlar yozadi. Ijodkor tengdoshingizning she'riy mashqlari tumanning «Qamashi» gazetasida tez-tez chop etiladi.

– Maktabimizda tashkil etilgan «Nihol» to'garagi a'zosiman. Tengdoshlarim bilan mashqlarimizni muhokama qilamiz. Yaqinda to'garagimiz a'zolarining ijod namunalaridan jamlangan

«Umid qaldirg'ochlari» nomli to'plam nashr qilindi. Ushbu kitobdan mening ham she'rlarim joy olganidan xursandman.

Bundan tashqari, sportning voleybol turi bilan muntazam shug'ullanaman. Jamoamiz tumanda tashkil etilgan sport musobaqalarida qatnashib, sovrinni o'rlnlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Bu yil yanada faol bo'lib, yuksak natijalarni qo'lga kiritishni oldimga maqsad qilib qo'ydim. Fursatdan foydalanib, yurtimizdagi barcha tengdoshlarimni kirib kelgan Yangi yil bilan kutlayman, – deydi Mahliyo hayajon bilan.

Biz ham Mahliyoga orzulari ijobatini tilab qolamiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

«Sog'lom bola yili»ni yangi-yangi orzu-umidlar, rejalar, loyihalar, ezgu niyatlar bilan qarshi olgan aziz o'quvchilar, Yangi yilingiz muborak bo'lsin! Aytishlaricha, Yangi yilni kim qanday qarshi olsa, ana shu kayfiyat unga yil davomida hamroh bo'lar ekan. Biz tahririyat xodimlari ham yangi yilimizni ezgu niyatlar, yangi rejalar bilan boshladik. Gazetamizning ilk sonidanoq «Iqtidorli tengdoshing» rukni orqali sizni a'lochi, jamoatchi, odobli, iqtidorli, tanlov va bellashuvlarda ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritgan tengdoshlaringiz bilan tanishtirishni niyat qildik. Shoyad, bunday o'quvchilarimizni yil davomida barchaga ibrat qilib borsak.

Quyida buxorolik bilimdon, zukko kichkintoylar haqida o'qiysiz.

2013-yilning dekabr oyida e'lon qilingan «Boshlang'ich sinflar fani oyli» yurtimizdagi barcha umumta'lim maktablarida uyushqoqlik bilan o'tkazildi. «Kim tez va ravon o'qiydi?», «Kim chiroyli va savodli yozadi?», «Eng zo'r hisobchi», «O'z qo'llarimiz bilan», «Kim ko'p she'r biladi?» kabi tanlovlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini yangi marralar sari ruhlantirmoqda. Shuningdek, ular o'rtasida ochiq darslar, o'quvchining ziyrakligi, topqirligini oshiruvchi intellektual o'yinlar tashkil etilishi kichkintoylar o'rtasida sog'lom raqobati yuzaga keltirmoqda.

Mazkur oylik Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabida ham qiziqarli va mazmunli tarzda o'tkazilindi. Maktabning 3-«B» sinf o'quvchisi Nodira-

begim Baxtiyorova oylik doirasida o'tkazilgan tanlovlarda faol qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritgan sinfdoshlari haqida faxrlanib yozib yuboribdi. Jumladan, «Kim tez va ravon o'qiydi?» tanlovida Azimjon Temirov 1-o'rinni, Hurmatoy Izzatova 2-o'rinni egallabdi. «Kim chiroyli va savodli yozadi?» tanlovida esa 1-o'rin Risolat Olimjonovaga, 2-o'rin Dilshoda Yusupova va Hurmatoy Izzatovaga, 3-o'rin Munisa Imomovaga nasib etibdi. Yangi yil bayrami arafasida o'tkazilgan «Yangi yilim – yaxshi yilim» mavzusidagi tadbirda barcha o'quvchilar faol ishtirok etishibdi.

«Sog'lom bola yili»da ham a'lo baholarga o'qib, maktabi nomini yanada yuksaltirishga, ustozlari ishonchini oqlashga bel bog'lagan bu kichkintoylarning o'qishlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz!

YULDUZZON




3-«B»NING A'LOCHILARI



Elyor AKBAROV,
Toshkent shahar Xalq ta'limi
Bosh boshqarmasi boshlig'i

iqtidorli o'quvchilarning ko'pligidan behad
quvondim. «Bilimlar bellashuvi», Fan
olimpiadasi, «Konstitutsiyamiz

amalga oshirish yo'lida
bajargan ishlarimiz
jamiyatimizni yangi bosqichga
ko'tarishga, yuksak marra-
larni egallashga xizmat
qilayotganini kuzatish qiyin
emas. Bugungi kunda yosh
avlodning to'la-to'kis bilim
olishi, iste'dodini shakllan-
tirishi uchun sharoitlar
yaratish maqsadida 7 ta
maktab qayta joriy, 12 ta
maktab kapital ta'mirlanib, 5
ta musiqa va san'at maktab-
lari rekonstruksiya qilindi.
Bolalarning sog'lom o'sishi va
rivojlanishi uchun 1ta sport inshooti
yangitdan qurildi, 3 tasi kapital rekonst-
ruksiya qilinib, bolajonlar ixtiyoriga
topshirildi. O'qish, izlanish – tinch va
osuda hayot hukmron bo'lgan
davlatdagina amalga oshadi. Mana
shunday osmonli musaffo, zamini tinch
diyorda yashayotgan ekanmiz, Siz yoshlar
ham uning ravnaqiga hissa qo'shishni
maqsad qilib yashang.



BUGUNGI YOSHLARGA HAVASIM KELADI

Aziz bolajonlarim, 2013-yilni kuzatar
ekanmiz, ta'lim sohasida qo'lga kiritgan
yutuqlarimizni, muhim va unutilmas
voqealarni beixtiyor xayolimizdan
o'tkazishimiz tabiiy.

«Obod turmush yili»da Siz bolajon-
larning iqtidor va iste'dodingizni namoyon
etish maqsadida amalga oshirgan
tadbirlarimiz, saxovat va muruvvat
tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan sa'y-
harakatlarimiz yakuniga nazar tashlar
ekanman, avvalambor, shahrimizda

bilimdonlari» ko'rik-tanlovlari, «Umid
nihollari» sport musobaqalari,
«Zulfiyaxonim qizlari» kabi tanlovlardagi
faolligingizni ko'rib, siz kabi iqtidorli,
iste'dodli o'quvchilarning bor ekan,
yurtimiz kelajagi ishonchli qo'llarda
ekanligiga ishonch hosil qildim.

Xalqimizning ezgu orzu umidi
barkamol avlod tarbiyasini o'z oldiga
maqsad qilib qo'yan umummilliy dastur-
larimiz, jumladan, Kadrlar tayyorlash va
Maktab ta'limini rivojlantirish dasturlarini

Aziz kichik yoshli do'stlarim,
o'quvchilaringiz, qadrdonlarim!

Yangi – 2014-yilimiz ham sizning
baxt-u saodatli kelajagingizni ko'zlab,
«Sog'lom bola yili» deya nomlanishi
yurtimizda yosh avlodga ko'rsatilayotgan
yuksak e'tiborning yana bir yorqin
namunasidir. Yangi yilimiz qutlug' kelsin.
O'qishlaringiz a'lo bo'lsin! Prezidentimiz
orzusidagi yigit-qizlar bo'lib yetishing!



Adabiyot – sehri olam. U har bir dilni
o'ziga shaydo eta oladi. Ammo bu olam
odami bo'lish baxti hammaga ham nasib
etavermaydi. Bu baxt chinakam iste'dod,
itilish, izlanish, bilim bilan chambarchas
bog'liqdir.

E'tirof etish joizki, bugungi kunda
tashkil qilinayotgan barcha tanlovlar
ko'plab iste'dod sohiblarini kashf
etmoqda. Shunday yosh iqtidor egalaridan
biri Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi
5-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quv-
chisi Quvonchoy Po'latova ham bamosiloli
adabiyot bo'stonida unayotgan g'uncha.
Uning yozgan she'rlari, hikoyalari o'z
muxlislari qalbidan joy olishga ulgurgan.
Taniqli adiblarimiz ijodini muntazam
o'rganib, tengdoshlari ijodini kuzatib
boradi. Quvonchoy maktabimiz direktori
– O'zbekiston Qahramoni» Anora opa

Mahmudovaning ham e'tirofini qozongan.
Darslarda, jamoat ishlarida, tuman,
viloyat, respublika miqyosida o'tkazil-
adigan tadbirlarda faol qatnashadi. Kitob
mutolaasi uning jon-u dili.

– Bo'sh vaqtimda kitob o'qiyman.
O'quvchi uchun darslarni o'zlashtirish
muhim vazifa bo'lgani kabi badiiy kitoblar
o'qish ham uning o'quvchilik burchi
hisoblanadi, – deydi Quvonchoy.

Ko'plab tanlovlarda muvaffaqiyatlarga
erishib kelayotgan ijodkor qizimiz yaqinda
Navoiy shahrida bo'lib o'tgan «Kamalak
yulduzlari» ko'rik-tanlovining «She'riyat»
yo'nalishida g'oliblikni qo'lga kiritdi.
Orzulari ro'yobi tomon shaxdam
borayotgan Quvonchoyga yangi yilimiz
quvonch keltirsin.

Roza ERMETOVA,
Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi
5-maktab o'qituvchisi

MENING ORZUM

«O'zbekiston pochta» OAJ
O'zbekiston Respublikasi aloqa,
axborotlashtirish va telekommuni-
katsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi
va O'zbekiston Badiiy Akademiyasi,
«Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida
«MENING ORZUM» bolalar ijodiy
rasmlari Respublika tanlovi o'tkazadi.
Tanlovi o'tkazishdan asosiy maqsad –
«Dunyo bolalar nigohida» maxsus
pochta markalarini chop etishdir.

TANLOVNI O'TKAZISH TARTIBI:

Tanlov 2014-yilning 15-yanvaridan
15-martigacha o'tkaziladi.

Tanlovga taqdim etilgan ijodiy
ishlardan eng yaxshi uchtasi saralab
olinadi. Tanlangan rasmlar asosida
«Dunyo bolalar nigohida» maxsus
pochta markalari turkumi chop etiladi.

Ijodiy ishlar quyidagi manzilga
jo'natiladi: Toshkent shahri, 100011,
Navoiy ko'chasi, 28-uy, «O'zbekiston
pochta» OAJ «O'zbekiston markasi»
ishlab chiqarish bo'limi. Maktublarda
«Tanlovga» deb ko'rsatilishi shart.

Telefon raqamlari:
244-39-36, 244-70-55.



TANLOV SHARTLARI:

- tanlovga oq vatman qog'ozda
ishlangan rasmlar qabul qilinadi;
- rasmlar guash yoki akvarelda
bajarilgan bo'lishi kerak;
- ijodiy ishning orqa tomonida
quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi
zarur;
- ijodiy ishning nomi;
- muallifning ism-sharifi, nasabi;
- tug'ilgan yili, oy-kuni;
- o'qish joyi;
- to'liq pochta manzili, telefon
raqami.

Tanlovda 8 yoshdan 12 yoshgacha
bo'lgan bolalar ishtirok etishlari
mumkin.

Tanlov g'oliblarini taqdirlash
2014-yilning 1-iyun kuni
o'tkaziladi. G'oliblar qimmatbaho
sovg'alar bilan taqdirlanadilar.

BOLAJONLARGA TUHFA

«Sog'lom bola yili» Sirdaryo
viloyatining Sayxunobod, Oqoltin va
Sirdaryo tumanlaridagi bolalar musiqa
va san'at maktablari o'quvchilari uchun
ham unutilmas tarzda boshlandi. Ular
viloyat bunyodkorlari tomonidan
barpo etilgan zamonaviy me'mo-
riy yechimlar asosida ko'r-
kam binolarga ega bo-
lishdi.

Bayram zavqi



Poytaxtimizning Yunusobod
tumanidagi 110-MTMda Yangi
yil bayrami ko'tarinki ruhda o'tdi.
Katta guruh tarbiyachisi Feruza
opa Gayfullaning sa'y-
harakatlari bilan bolajonlar turli
ertak qahramonlari-yu qorpar-
chalar siyosida namoyon bo'lib,
sahna ko'rinishlarida ishtirok
etishdi. Tadbir so'ngida muassasa
rahbari Zulfiya opa Jalolova
shirintoylarni «Sog'lom bola yili»
bilan qutlab, sog'lom va baquvvat
ulg'ayishlariga tilakdosh bo'ldi.

KUSHKAYFIYAT

Qishki ta'il zavqini miriqib
surayotgan andijonlik o'g'il-qizlar
qalbiga viloyat markazidagi «Barkamol
avlod» xiyobonida barpo etilgan
«Ertaklar shaharchasi»da namoyish
etilayotgan Yangi yil tomoshalarina
quvonch bag'ishlayotgan bo'lsa, ajab-
mas. Xiyobonga o'rnatilgan 25 metrlik
rango-rang chiroqlar-u o'yinchoqlar
bilan bezatilgan ko'rkam archa, turli
atraksionlar, teatr jamoalarining
chiqishlari jajji ko'ngillarga
xushkayfiyat ulash-
moqda.

ZERIKISHNI BILMAYMIZ

Oppoq qor yoqqan kuni,
Quvonchdan zavqim oshib,
Maktab tomon yo'l oldim,
Erta tong ildam, shoshib.

Momiq ko'rpa yopishib,
Uxlab dasht-u dalalar,
Bir-birini qulashib,
Borlar quvnoq bolalar.

Qorbo'ronlar o'ynab biz,
Zerikishni bilmaymiz,
Havo sovuq bo'lsa ham,
Aslo parvo qilmaymiz.

Nuriniso XOLMUHAMMEDOVA,
poytaxtimizdagi 198-maktabning
7-«B» sinf o'quvchisi

SHODLIKLAR OLIB KELDI

Qor parchasi samodan,
Uchqunlab uchib keldi.
Momiqqina oppoq qor,
Borliqni quchib keldi.

Kumush qish bolalarga,
Shodliklar olib keldi.
Keksa-yu yosh qalbiga,
Quvonchlar solib keldi.

Madinabonu MAHAMMADRIZAYEVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
184-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi

AJOYIB O'YIN

Bog'chadagi ikki do'st,
Sal zerikib qolibdi.
Biri ikkinchisini,
Shunday gapga solibdi:

– Kel, o'ynaymiz sen bilan
«Zoopark» degan o'yinni.
O'rtog'i so'rar hayron:
– Qanday o'ynaymiz uni?!

– Men-chi, maymun bo'laman,
Ochofat orangutan.
Sen esa oshxonadan,
Tashib turasan banan.

Dilafro'z AYTBAEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Nukus shahri

QORBOBONING SIRI

Yangi yil hikoyasi

Dunyoda Yangi yilni, Qorboboni orziqib kutmaydigan bola bo'lmasa kerak. Chunki Yangi yil – yangilanish, yangi orzu-umidlar, ezgulik ramzi. Bola ko'nglida esa beg'ubor niyatlar, samimiylilik mo'l bo'ladi.

Yil poyoniga yetayotgan kunlar, yakshanba tongi edi. Menga «Assalom!» qilgani chiqqan uch yashar nabiram Gulhayo so'rab qoldi: «Bobojon, siz Qorbobo bo'lmaysizmi?..»

Go'dak tilidan uchgan bu so'zlar meni o'ygatdirdi. «Haqiqatan ham Qorbobo bo'lib, bolakaylarni bir xursand qilsammikan?..»

– Gulhayo, mayli, Qorbobo bo'laman. Ayt-chi, sen qanaqa sovg'a olmoqchisan? – so'radim nabiramdan. Qizaloqning chehrasi yorishdi. Uzun kipriklarini pipiririb biroz jim qoldi. U Qorbobodan qanday sovg'a so'rashni o'ylardi. So'ngra, donadona qilib:

– Men Qorbobodan juda zo'r sovg'a so'ramoqchiman! – dedi quloqlarini keng yoyib, avval menga, so'ngra osmonga tikilarkan.

– Xo'sh, xo'sh, qizim, bu zo'r sovg'a nima ekan?

Gulhayo sirli jilmayib, ko'rsatkich barmog'ini lablariga bosdi.

– Bobojon, hech kim eshitmasin, keling, qulog'ingizga aytaman!

Men egildim, nabiram sekin shivirladi:

– Qorbobo menga bitta ukacha olib kelsin!

Men uning antiqa sovg'a so'rashini taxmin qilgan bo'lsam-da, bunaqasini sira kutmagandim.

Juda g'alati bo'lib ketdim. Yo qudratingdan, shu mushtdekkina bola ko'ngliga hayot davomiyligidek buyuk tuyg'uni sola bilibsan. Demak, hayot abadiyligi shundandir!

Bir muddat jim turib qolganimni ko'rgan Gulhayo yuz-ko'zlarida ming bir xavotir bilan tikildi. Zo'r sovg'a so'ragani Qorboboga malol kelmamikan, degan xayolga borgandi, chamas.

Uni tezroq xotirjam qilish maqsadida so'z qotdim:

– Qizalog'im, orzuingga, albatta, yetasan. Lekin ukachang bor-ku, yana bittasini nima qilasan?

– Ho-o-o, – dedi Gulhayo lablarini cho'chchaytirib, – dugonam Faridaning ikkita ukachasi bor-ku! Mening ham ikkita ukacham bo'lsa, yaxshi-da! Ularga qand beraman, qo'g'irchog'imni beraman. Keyin, alla aytaman...

– Bo'пти, Qorbobo bilan kelishdim, deb hisoblayver. Xudo xohlasa, sening ham ikkita ukachang bo'ladi!..

Bolakayning quvonchini bir ko'rsangiz edi! U irg'ishlar, dikonglab raqsga tushar, chuchuk tili bilan qo'shiq aytar, dunyoning jamiki shodligi shu kichkina vujudga jamlangan edi, go'yo.

Xayolga cho'mganimni ko'rgan nabiram raqsini to'xtatib, sekin yonimga keldi.

– Bobojon, buni hech kimga aytmang!

– Qorbobo hech kimga aytmaydi, sir saqlashni biladi, ona qizim!

Deraza oynasidan tashqariga nazar tashlayman. Daraxtlarning yalang'och novdalariga yakkam-dukkam qor uchqunlari qo'nadi. Qish ne'mati hisoblanmish qor yog'sammi, yog'masammi, deganday erinibgina uchqunlaydi. Ko'cha bolakay-

Jo'ra FOZIL

larning sho'x-shodon qiyqirig'iga to'la. Achchiq izg'irin ularning yuzlarini xuddi G'jduvon shirmoy kulchasidagi qizartirgan. «Aslida, Yangi yil, eng avvalo, bolajonlar bayrami-da», deyman o'z-o'zimga.

Xuddi shu asnoda eshik g'irchillab ochilib, ostonada kenja nabiram paydo bo'ladi.

– Bobojon, opam shijni Qoybobo deydi, shu roysmi? – so'raydi u hovliqib.

– Rost, o'g'lonim, rost! – deyman ko'nglim nurga to'lib.

O'g'lon anoyilardan emas, darhol maqsadga ko'chadi.

– Qoybobo, Qoybobo! Mengayam ukacha oyib keying!

«Ob-bo, qizi tushmagur-ey, menga sir saqlashni tayinlab, o'zi darrov «gullab» qo'yibdi-ku», deyman ichimda.

– Zo'r yigitsan-da! Darhol aka bo'lmoqchisan. Mayli, senga ukacha olib kelganim bo'lsin.

Shovvoz xursandchiligini yashirmay, tashqariga otilladi. Hoynahoy o'rtloqlariga maqtagani ketyapti.

Yana deraza ortiga tikilaman. Qor hamon istaristamay uchqunlayapti.

Ko'nglim shodlikka to'lib bormoqda. Yangi yil tobora yaqinlashib kelayotir...

BAYRAMGA MUNOSIB TUHFA

Ortda qolgan 2013-yil so'ngida o'zbekistonlik yosh shaxmatchilar yana bir yirik sport anjumanida muvaffaqiyatli ishtirok etib, Yangi yil bayrami arafasida yurtdoshlarimizga ajoyib sovg'a hozirladilar.



Birlashgan Arab Amirliklarining Al-Ayn shahrida 8 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar, o'smirlar va qizlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida vakillarimiz o'zlarining bor mahorat va imkoniyatlarini ishga solib, g'oliblikka astoydil intildilar. Dunyoning 120 mamlakatidan eng iqtidorli yosh shaxmat ustalari ishtirok etgan mazkur musobaqada Javohir va Islombek Sindorovlar, Nilufar Yoqubboyeva, Gulruhbegim Tohirjonova, Shavarsh Badalyan, Nodirbek Abdusattorov hamda Bahora Abdusattorova kabi eng iqtidorli sportchilarimiz o'zlariga bildirilgan ishonchni to'la oqladilar. Jumladan, nufuzli turnirning o'n to'rt yoshgacha bo'lgan qizlar bahsida muvaffaqiyatli qatnashgan Bahora Abdusattorova yakunda o'z yosh toifasi bo'yicha kumush medalni qo'lga kiritdi.

Shu o'rinda alohida e'tirof

etish joizki, yurtimizda yosh avlod kamoloti yo'lida yaratilgan sharoit va imkoniyatlar sabab, farzandlarimiz o'z iqtidori bilan butun dunyoni hayratga solmoqda. Ayniqsa, shaxmatdek yuksak intellektual salohiyat va o'tkir aql-zakovat talab etadigan sport turida muvaffaqiyatga erishayotgan yoshlarimiz safi tobora kengayib borayotgani quvonarlidir. Bahora ham ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan iqtidorli yoshlarimizdan biridir.

Yosh shaxmatchimiz Al-Aynda o'tkazilgan jahon chempionatida ham zimmasidagi mas'uliyat hissini to'la anglab, o'zining tezkor yurishlari, kutilmagan qarorlari bilan raqibalariga jiddiy muammo tug'dirdi. U latviyalik Darya Litvyakova, isroillik Michal Lahav, irlandiyalik Diana Mirza, kanadalik Kiyu Jou, ozarbayjonlik Narmin Mamadova, rossiyalik Anna Vasenina hamda jamoadoshlari Nilufar

Yoqubboyeva va Gulruhbegim Tohirjonova ustidan g'alaba qozonib, xitoylik Lan Yao va ozarbayjonlik Gunay Mamadzoda bilan durang o'ynadi. E'tiborlisi, Bahora ushbu yosh toifasida jahon chempionligini qo'lga kiritgan gretsiyalik Stavroula Solakidou bilan bir xil - to'qqiz ochko jamg'ardi. Yurtdoshimiz faqatgina qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'yicha raqibasidan ortda qoldi, xolos.

Aziz o'quvchilar, mana, «Sog'lom bola yili»ni ham katta orzu-niyatlar bilan kutib oldik. Ayni paytda qishki ta'tilni maroqli o'tkazayotgan bo'l-sangiz, ajab emas. Tilagimiz, bo'sh vaqtinizdan unumli foydalanib, sport bilan oshno tutining. Agar har biringiz sog'lom turmush tarziga amal qilsangiz, taningiz sog', maktabdagi baholaringiz esa a'lo bo'ladi.

Sa'dullo TURSINOV

Qish kunlari bo'lishiga qaramay, yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari aslo susaygani yo'q. Yaqinda Farg'ona viloyatining Rishton tumanida yangi sport inshooti qurilib, foydalanishga topshirilgani so'zimiz tasdig'i bo'la oladi. Mazkur majmua tuman yoshlari uchun Yangi yil bayramiga ajoyib sovg'a bo'ldi.

E'TIBOR NAMUNASI



Sport inshootining ochilish marosimida so'zga chiqqanlar bugun mamlakatimizda bolalar sportiga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida yoshlarimiz o'rtasida sportning ko'plab turlari ommalashib borayotganini ta'kidladilar.

O'zbekiston Respublikasi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Farg'ona viloyati filiali mablag'lari hisobidan bunyod etilgan mazkur majmuada tumanda istiqomat qilayotgan 500 nafardan ziyod o'g'il-qiz sportning mini futbol, voleybol, basketbol, kurash, og'ir atletika va gimnastika kabi turlari bilan muntazam shug'ullanish imkoniga ega bo'ldilar.

Umid qilamizki, kelajakda rishtonlik yoshlar yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, o'zbek sportining xalqaro maydondagi yutuqlariga munosib hissa qo'shadilar.

O'z muxbirimiz

Sportning har bir turi insondan sabr-toqat, shijoat talab etadi. Qiyinchiliklardan cho'chimaydigan, ularni mardonavor yengib o'tadigan o'g'il-qizlarga g'oliblikka munosibdir.

POLVON YIGIT – YURT ORI

Ana shunday serg'ayrat yoshlardan biri Chirchiq olimpiya xaxiralari maktabi o'quvchisi Dostonbek Ro'ziyevdir. U yoshligidan kurash va dzyudo sport turlariga o'ziga qiziq qo'ydi. Ilk saboqlarni taniqli murabbiy Fozil Xolbozorov o'g'itlari asosida o'zlashtirdi.

Asta-sekin o'z mahoratini oshira borgan yosh sportchi 2005-yil Samarqandda o'tgan respublika musobaqasida kumush medal,

2007-yil Andijonda tashkil etilgan O'zbekiston birinchiligida bronza medal sohibiga aylandi. Mana, bir necha yildirki, Dostonbek o'z mahoratini Chirchiq olimpiya xaxiralari maktabida taniqli murabbiylar – Sohib Ro'zimurodov, Sherzod Rasulov, Laziz Yo'ldoshev qo'l ostida oshirib kelmoqda.

Qisqa vaqt ichida u o'zining mehnatsevarligi, intiluvchanligi

bilan sport maktabidagi ustozlari e'tiborini ham qozondi. Shogirdi haqida murabbiyi Sohib aka Ro'zimurodov shunday deydi:

– Doston tengqurlari orasida tirishqoqligi, intiluvchanligi bilan ajralib turadi. Har bir mashg'ulotda qattiq ter to'kadi, o'z ustida tinimsiz mehnat qiladi. U Vatani, ota-onasi, yaqinlari, ustozlari ishonchini chuqur his qilgan holda, musobaqalarda g'oliblikka astoydil intiladi.

Qashqadaryolik bu tengdoshingiz 2008-yil Angrenda bo'lib o'tgan

Oleg Berkachov xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnirda II o'rinni, respublika birinchiligida I o'rinni qo'lga kiritgan. Shuningdek, 2009-yil Qozog'istonda tashkil etilgan xalqaro turnirda ham oltin medalga munosib ko'rilgan. 2011-yilda esa Dostonbek O'zbekiston chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi.

2013-yil dzyudo bo'yicha Xorazmda bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida I o'rinni qo'lga kiritgani yosh sportchiga xalqaro turnirlarda ishtirok etish uchun keng yo'l ochdi. U o'tgan yilning aprel oyida Rossiyada o'tkazilgan Yevropa kubogida kuchli beshlikdan o'rin olgan bo'lsa, 13–23-avgust kunlari bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida faol qatnashib, jamoamiz hisobiga oltin medalni qo'shib qo'ydi.

Aziz o'quvchilar! Sizlar havas qiladigan, yurtimiz nomini dunyoga tanitayotgan nomdor chempionlar ham bir paytlar yosh bola bo'lishgan. Ayni sizning yoshingizda sport bilan do'stlashib, o'zlarini chiniqtirib borganlar.

Sizning ham ko'nglingiz olam-olam orzularga limmo-lim. Yillar o'tib, biror kasbni egallaysiz va ona Vataningizga xizmat qilasiz. Qanday kasb egasi bo'lishingizdan qat'iy nazar, sport bilan shug'ullanishni kanda qilmang. Natijasini esa hayot ko'rsatadi.

Shahobiddin ORTIQOV

SAN'ATGA OSHUFTA QALBLAR

Tasviriy san'at inson qalbiga ajib tuyg'ular olib kiradi. Tomoshabin biror san'at asarini zavq bilan tomosha qilsa, uning ijodkori insonlarga ma'naviy zavq ulasha olayotganidan ikki hissa shodlanadi.

Ana shunday ijodkorlardan biri Akmaljon aka Nig'matjonov poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 322-maktabda o'quvchilarga rasm va chizmachilik fanidan dars berib keladi. Shu bilan birga, «Tasviriy san'at» to'garagini ham boshqaradi. To'garakda o'ttizdan ziyod o'quvchilar tasviriy san'atning

qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik yo'nalishlari bo'yicha saboq olishadi. Mashg'ulotlarni kuzatsangiz, Akmaljon akaning shogirdlari chizayotgan rasmlarni, yasayotgan haykalchalarni ko'rib, ko'zingiz quv naydi.

Ustoz uchun shogirdlari muvaffaqiyatidan-da ortiqroq baxt bormi, dunyoda?! Akmaljon aka to'garakda kamol topayotgan o'g'il-qizlarning aksariyati Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutiga, Toshkent arxitektura institutiga va Toshkent rassomlik kollejiga o'qishga kirib, katta yutuqlarga erishishayotganidan behad mamnun.

O'zining ham samarali mehnatlari munosib taqdirlangan. Bugun uning ko'ksini Xalq

ta'limi a'lochisi va «Toshkentning 2200 yilligi» ko'krak nishonlari bezab turibdi.

san'atning sirli olamiga oshno tutinayotgan iqtidorli o'quvchilarimiz orasidan mohir musavvirlar, arxitektor va dizaynerlar yetishib chiqishiga, ularning asarlari, yaratgan liboslari xorijiy davlatlarda tashkil qilinadigan ko'rgazmalarda ham namoyish etilib, yurtimiz dovruq'ining dunyoga yoyilishiga ishonamiz, – deydi maktabning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

G'ayrat Ashurov. – Chunki ular Akmaljon akadek fidoyi ustozdan saboq olishmoqda...

To'garak a'zolarining ijodiy ishlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, bu dargohda ko'plab iste'dodlar



voyaga yetayotganiga biz ham amin bo'ldik.

Quyida fidoyi ustozning iqtidorli shogirdlari ijodi bilan tanishasiz.



Baxtiyor YUSUPOV



Ayni paytda eng yosh shogirdlari 1-sinf o'quvchisi Iqboloy Abdullayeva, 5-sinf o'quvchisi Zilola To'xtamurodova va 284-maktabning 3-sinf o'quvchisi Baxtiyor Yusupovdan ham ustozning umidi katta.

– Biz to'garakda tasviriy



Iqboloy ABDULLAYEVA

Bilsangiz? JONIVORLAR OLAMI



Azil bolajonlar, bu jonivorning nomini eshitishingiz bilanoq, ko'z oldingizga uning ajoyib shoxi keladi. Bugun kino va multfilmlarda ko'rganingizday, Yangi yil arafasida chanasini to'la sovg'alar bilan Qorboboni uzoq manzillarga bir zumda yetkazib qo'yadigan bug'ular haqida ma'lumot beramiz.

Sut emizuvchilar oilasiga mansub bo'lgan bug'u juft tuyoqli hayvon hisoblanadi. Oyoqlari ingichka, boshi uzunchoq, dumi kalta bu jonivor Yevropa, Osiyo, Amerika va Shimoliy Afrikada keng tarqalgan. Shimol bug'usi yozda tundrada, qishda o'rmonda yashaydi. U eng chiroyli bug'u hisoblanadi. Og'ir sharoitda ham hayot kechirishga yaxshi moslashgan bu jonivorning juni juda ham qalin bo'lib, uni sovuqdan asraydi.

Bilsangizmi, bolalar, bug'u birvarakayiga qo'y, sigir, ot kabi uy jonivorlarining o'rmini bosa olgan. Shuning uchun ham shimol xalqlari qadim zamonlardan buyon bu hayvonni xonakilashtirishga harakat qilishgan. Yengil chana qo'shilgan bir juft bug'u 100 kilogramm yuk bilan soatiga 10 kilometr tezlikda harakat qila oladi.

Bug'ularning shimol bug'usidan tashqari yana qirq sakkizta turi bor. Ularning bo'yi 60 santimetrdan 2 metrgacha yetishi mumkin. O'zbekistonda bug'ularning xongul deb nomlangan turi mavjud. Bug'ular doimo to'da bo'lib yurishadi, kuchli bo'ronda bir-birlariga yaqinlashib, zichlashib olishadi. Bahor va kuzda bu jonivorning tullashini, qish faslida kattakon shoxlarini tashlashini, bahorda uning o'rmonga yangilari o'sib chiqishini bilsangiz kerak?! Ona bug'u bittadan ikkitagacha bolalaydi. Bug'uchalar tug'ilgan kunining ertasigayoq yugurib ketishadi va bir yarim yoshda voyaga yetishadi.

ZUBAYDA tayyorladi

LIBOSLARI DUNYO KEZSIN!



E'tibor berganmisiz, o'quvchilardan, eng sevimli o'qituvchingiz kim, deb so'ralganda, aksariyati, sinf rahbarim, deya javob berishadi. Buning boisi ayon: sinf rahbarlarimiz xuddi onamizdek mehribon, g'amxo'r bo'lishadi. Yutuqlarimizdan quvonishadi, muammolarimizni hal qilishga ko'maklashadi.

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 21-maktabning 9-«A» sinfida tahsil olayotgan tengdoshimiz Aziza Hojiqurbonova ham sinf rahbari Nargiza opa Bulatovani juda yaxshi ko'rar ekan. Sababi, Nargiza opa ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, o'quvchilaridan tikuvchilik, pazandalik, musavvirlik bobidagi maslahatlarini ham ayamas, ularni yanada ko'proq ijod qilishga undab turar ekan. Kelajakda mohir modelyer-dizayner bo'lish uchun hozirdanoq tinimsiz ijod qilayotgan iqtidorli dugonamiz zamonaviylik va milliylik uyg'unligida liboslar yaratish ishtiyoqida izlanmoqda. O'zibegimning beqasami, atlasiyu adraslari dunyo kezzishini orzu qilayotgan, shu tariqa ustozining mehnatlarini oqlashni maqsad qilgan Azizaxonga ijodiy parvozlar tilaymiz.

Maftuna BOTIROVA,
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi
34-maktabning 9-sinf o'quvchisi

H. HAMIDULLAYEV o'lgan surat

8

6-yanvar 2014

Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

Tahrir hay'ati:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA
Rassom
Feruza MATYOQUBOV
Dizayner
Olovuddin ORIPOV
Musahhah
Ozoda TURSUNBOYEVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 48613
Buyurtma N: J 8884

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi